

## QASHQADARYO PROKURATURASI YOSHLAR O‘RTASIDA SPORT

### TADBIRLARI TASHABBUSKORI

Rajabov Farrux Alisherovich

#### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada prokuratura tushunchasi haqida ma'lumot, prokuratura organlari faoliyati, Qashqadaryo prokuraturasi tomonidan o'tkazilgan yoshlar o'rtasida sport tadbirlari tashabbuskorligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** prokuratura, davlat organlari, tashkilot, vakolat, okrug, sport, tadbir

#### **Prokuratura**

(lotincha: procurare — „g'amxo'rlik qilish“) — ayrim mamlakatlarda jinoiy ishlarni qo'zg'atish, ayblovni yoqlash, sud protsessida davlat manfaatlarini himoya qilish vakolatlari yuklatilgan maxsus davlat organi (organlar tizimi). Dastlab 13—14-asrlarda Fransiyada yuzaga kelgan. Bir qancha mamlakatlarda Prokuraturaga barcha fuqarolar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarning qonunlarni aniq va bir xilda bajarishi ustidan nazorat qilish vazifasi ham kiradi. Muayyan mamlakatlarda prokuratura sudning tarkibiy qismi hisoblanadi, boshqalarida esa tashkiliy jihatdan undan ajratilgan. Bosh prokuror O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan saylanadi. Boshqa viloyat, tuman va shahar prokurorlari Bosh prokuror tomonidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasida ham Prokuratura hokimiyati faol ishtirok etadi. Bundan tashqari prokurorlar sudlarda ham ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga hisob beradi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida muntazam ravishda, o'ta og'ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar bo'yicha esa zudlik bilan, shuningdek, prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to'g'risida har olti oyda axborot taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Senatiga har besh yilda kamida bir marta o'z faoliyati haqida hisob beradi.

Prokuratura tushunchasi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi (29.08.2001 y.) "Prokuratura to'g'risida"gi qonunida berilgan, unga muvofiq prokuratura yagona markazlashtirilgan tizimga ega bo'lgan hamda O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradigan organ hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimi mazkur qonunning "Prokuratura organlari tizimi" deb atalgan 10-moddasida aniq ko'rsatilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlariga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturasi, tumanlar va shahar prokuraturalari, viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan

O'zbekiston Harbiy prokuraturasi, O'zbekiston transport prokuraturasi, shuningdek, tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar kiradi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi, shuningdek ularning joylardagi bo'linmalari faoliyat ko'rsatishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XXIV bobining 118-121 moddalariga ko'ra, prokuratura organlarini tashkil qilish, ularning vakolatlari va faoliyatlarini ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilangan.

shular jumlasidandir.

Yurtimizda turli soha vakillari o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va sportni, xususan futbolni ommalashtirish borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilib, bir qator musobaqalar o'tkazilmoqda.

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumandagi pedagogika va sport kollejida 25 iyul kuni «Sport-sog'lom avlod, sog'lom kelajak» shiori ostida sportning «TAEKWONDO WTF» turidan «Prokuror kubogi» musobaqasining tuman ochiq birinchiligi o'tkazildi. Tadbirda Toshkent, Buxoro, Jizzax, viloyatlari va Samarqand viloyatining Tayloq, Urgut, Jomboy, Payariq va Past Darg'om tumanlaridan jami bo'lib 250 ga yaqin sportchilar ishtirok etishdi. Musobaqani tuman hokimi, prokurori va IIB boshlig'i ochib berdi, musobaqa ishtirokchilari «Kirugi» bahslarida 41 ta vazn bo'yicha bellashuv olib borildi.

Qashqadaryo viloyati jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi tashabbusi bilan viloyat bo'ylab sog'lom turmush tarzini keng joriy qilish, aholi ayniqsa yoshlarni sportga bo'lgan qiziqishlarini yana-da oshirish maqsadida tegishli mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda ommaviy sport tadbirlari hamda musobaqalari qoidalari asosida o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yana-da oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 4881-sonli Qaroriga ko'ra, Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida bosqichma-bosqich kurash hamda jangovar kurashni ustuvor sport turlari sifatida kiritish kabi vazifalar belgilandi. Mazkur musobaqani o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad, prokuratura xodimlarining jismoniy tayyorgarligini oshirishda kurash va jangovar kurashni asosiy sport turi sifatida tadbik etishdan iborat. Xususan buni viloyatimiz misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, "Prokuratura polvoni" tuman turniri tashkil etildi.

"Prokuratura polvoni" tuman turnirida erkaklar – 73kg, -81 kg, -90 kg, +100 kg vazn toifalari o'zaro bellashdilar.

Ushbu kun "Polvoni ko'p yurt qudratli bo'lur" so'zi isbotini topdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shunisi quvonarliki, gilamga chiqqan har bir ishtirokchi qonida bobolardan meros kurash ilmi borligini namoyon qildi. Qizg'in kurashlarga boy bo'lgan bellashuvlar yakunida quyidagilar "Prokuratura polvoni" degan nomga munosib ko'rildi.

Musobaqa yakunida kurash bo'yicha "Prokuratura polvoni" I tuman turnirining barcha g'olib va sovrindorlari tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar. Shuningdek, ikkinchi va uchinchi o'rinlarni band etgan jamoalarga diplom va qimmatbaho sovg'alar taqdim etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, prokuratura davlat hokimiyatining har xil davlat organlari, mahalliy kengashlar, jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda yoki hisobdorlikda ishlashi orqali butun davlat hududida tobora kuchayib boradigan jinoyatchilik bilan, chunonchi, korrupsiya alomatlari bilan kurashishda asosiy rol o'ynamog'i lozim. Bu faoliyatni samarali bo'lishi bilan birga inson huquqlarini hurmat qilishga asoslanishi, jamiyatni rivojlanishi va odil sudlovga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. Adolat. 2020
- 2.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Khudayar Khan's rule of kokand Khanate." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.02 (2022): 182-185.
- 3.Mamlakat, Qodirova, and Mannonov Yorqin. "BOZOR SAMADOV-XALQ QAHRAMONI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 696-698.
- 4.Safarov, Akmal, and Mamlakat Qodirova. "PAXTA YAKKAHOKIMLIGI DAVRIDA XOTIN-QIZLARNING QISHLOQ XO 'JALIGIDAGI O 'RNI (QASHQADARYO MISOLIDA)." E Conference Zone. 2022.
- 5.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Issues of the Ethnogenesis of the Uzbek People in Ethnographic Studies of Uzbekistan During the Years of Independence." Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 7 (2022): 116-118.
- 6.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Development of community livestock during the years of independence on the example of kashkadare and surkhandare." Academicia Globe: Inderscience Research 3.04 (2022): 455-457
- 7.Mannonov, Yorqin, and Mamlakat Qodirova. "LAG'MON QISHLOG'I TARIXI." Scientific progress 3.3 (2022): 876-880.
- 8.Davronbek, Normurodov, and Qodirova Mamlakat. "Abu nasr inb Muhammad Farobiy." Ta'lim fidoyilari 5.9 (2022): 496-499.
- 9.Muminovna, Kodirova Country. "HISTORY OF CREATION AND DEVELOPMENT OF PUBLIC ORGANIZATIONS IN UZBEKISTAN." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.12 (2022): 967-969.
- 10.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Why mahatma Gandhi changed the world forever." Academicia Globe: Inderscience Research 3.06 (2022): 361-367.